



**“TERMIZ ARXELOGIYA MUZEYI KUTUBXONA FONDI:
O'TMISHNING SIRLARINI SAQLOVCHI XAZINA”**

Achildiyeva Nazokat Nuraliyevna

Termiz arxeologiya muzeyi kutubxona mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda yagona Termiz arxeologiya muzeyi kutubxona fondida saqlanayotgan qadimiy kitoblari haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Ularning aksariyati o'rta asrlar davriga oid bo'lib, bizga o'tmishdagi madaniyatlar, tillar va odamlar haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Kitobning paydo bo'lishi, uning shaxs kamolotida tutgan o'rni va kitob paydo bo'lish tarixi hamda eng qadimgi qo'lyozma asarlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Arab yozuvi, “Qur’oni Karim tasviri va tarixi”, “Ma’rifatnoma, Sababul ta’lif”, “Rivoyat va hikoyalar”, “Devoni xofizi Sheroziy”, “Muxtasar-ul viqoya”, “Muxtasar-ul maoniy”, “Bahori gul g’azal”, “Chor kitob”.

Kirish. Termiz arxeologiya muzeyining kutubxonasi - bu tarixning o'zi nafas olayotgan joy. Qadimgi ashyolar o'zining sirlarini ochib berayotgan bo'lsa, kutubxona esa o'zining qimmatli qo'lyozmalari bilan o'tmishga eshik ochib beradi.

“Muxtasar-ul viqoya” - o'tmishning shohidlari singari, o'z sahifalariga tarixning hikayasini yozib qo'ygan. “Haftiyak varaqlar” esa Qur’oni Karimni o’qishga yo’l ochib beradi, har bir sahifasida ilm va hikmat yashirin. “Jomiy ramuz-juz” va “G’ofuz-ul Baxrayin” esa islomiy masalalarni sharhlab, o'z davrining diniy fikr-mulohazalari bilan tanishtiradi. “Sharh-ul viqoya” Islom shariati haqida gapiradi, “Islom sharitiga oid masalalar” esa diniy hayotning muhim jihatlarini ochib beradi. “Sahihi-ul Buxoriy” va “Tanbur-ul-qulub” esa islomiy ta’limotlarni o'z ichida jamlagan qimmatli asarlardir. “Maslak-ul mutaqqin” esa to’g’ri yo’lni ko’rsatib, inson ruhini kamolga yetkazishga yordam beradi.

XIV asrda yaratilgan “Devoni xofizi Sheroziy” esa o'zining go’zal xattotligi bilan hayratga soladi. Forsiy tilda bitilgan bu asar shoirning ijodi bilan tanishishga imkon beradi.

Muzey kutubxonasining qadimiy kitoblar fondi 119 donadan iborat. 74 donasi qo'lyozma manbalar, 45 donasi esa qadimgi toshbosti kitoblar. Termiz arxeologiya muzeyining kutubxonasidagi mavjud qadimiy kitoblar fondi 119 donadan iborat. Shundan 42 dona qadimiy asarlar turk tilida, 44 donasi arab tilida bitilgan bo'lsa, 33 donasi forsiy tilda bitilgan.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Bu qimmatli meros nafaqat tarixchilar, balki qadimshunoslar, etnograflar, arxeologlar, numizmatlar uchun ham muhim manba hisoblanadi. Muzey kutubxonasining fondi o'z ichida ermizning ilk foto-negativ rasmlarini ham saqlab kelmoqda. Bu rasmlar shaharning o'tmishdagi ko'rinishini ko'rsatib, tarixning guvohi hisoblanadi.

Termiz arxeologiya muzeyining kutubxonasi faqatgina kitoblar to'plami emas, balki tarix va madaniyatning o'ziga xos bir muzeyi. Bu joyda o'tmish nafas oladi, tarix gapiradi, va ilm yorug'lik sohib turadi.



1 rasm. Termiz arxeologiya muzeyi kutubxona fondi haqida infografika.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.Choriyev, Sh.Shaydullayev, T.Annayev. O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2007-yil.
2. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondarë tarixidan lavxalar. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriëti, 1991.

Elektron adabiyotlar

3. www.shosh.uz
4. <https://n.ziyouz.com>.
5. <https://society.uz>